



OILA SHAXSNING HUQUQIY SHAKLLANISHI VA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK IJTIMOIIYLASHUVINING BAZAVIY INSTITUTI SIFATIDA

Qurbonova Aziza Davlat qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Amaliy psixologiya kafedrası assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17357201>

Annotatsiya: Mazkur **maqolada** o'spirinlarda yuridik savodxonlikning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik determinantlar tahlil qilinadi. Tadqiqotda huquqiy tarbiya jarayonining psixologik mexanizmlari, oilaviy va ijtimoiy muhitning o'rni hamda shaxsning huquqiy ongini rivojlantirishdagi o'zaro bog'liqlik ilmiy asosda yoritilgan. Muallif L. S. Vygotskiy, A. Bandura, E. Erikson va U. Bronfenbrenner kabi olimlarning nazariy konsepsiyalariga tayangan holda, oila, maktab va jamiyatning huquqiy tarbiyadagi integrativ rolini tahlil qiladi. Maqolada o'smir shaxsining huquqiy tafakkurini shakllantirishda ijtimoiy sharoitlar, kommunikativ tajriba va ma'naviy qadriyatlarining ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari o'spirinlarda yuridik ong va fuqarolik madaniyatini rivojlantirishda psixologik-pedagogik omillarning muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Yuridik savodxonlik, o'spirin, ijtimoiy-psixologik determinantlar, huquqiy ong, oila, ijtimoiylashuv, huquqiy tarbiya, fuqarolik madaniyati.

Аннотация: В данной **статье** рассматриваются социально-психологические детерминанты формирования юридической грамотности у подростков. В работе анализируются психологические механизмы правового воспитания, роль семьи, школы и социального окружения в развитии правового сознания личности. Автор опирается на теоретические подходы Л. С. Выготского, А. Бандуры, Э. Эриксона и У. Бронфенбренера, раскрывая интеграцию педагогических и психологических факторов в процессе социализации подростков. В статье обоснована взаимосвязь между правовым мышлением подростка, семейными ценностями и общественными нормами. Результаты исследования подчеркивают значение правового воспитания как основы формирования гражданской идентичности и социальной ответственности молодежи.

Ключевые слова: юридическая грамотность, подростки, социально-психологические детерминанты, правовое сознание, семья, социализация, правовое воспитание, гражданская культура.

Abstract: This **article** examines the socio-psychological determinants that influence the development of legal literacy among adolescents. The study analyzes the psychological mechanisms of legal education and the role of family, school, and social environment in shaping adolescents' legal awareness. Drawing on theoretical frameworks by L. S. Vygotsky, A. Bandura, E. Erikson, and U. Bronfenbrenner, the author explores the integrative influence of psychological and pedagogical factors in the socialization process. The article highlights how moral values, communication patterns, and family upbringing contribute to the formation of adolescents' legal thinking and civic identity. The results underscore the importance of fostering legal literacy as a foundation for responsible and law-abiding citizenship among youth.

Keywords: legal literacy, adolescents, socio-psychological determinants, legal awareness, family, socialization, legal education, civic identity.

Shaxsning ijtimoiy va huquqiy jihatdan kamol topish jarayoniga ko'plab omillar — ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, tengdoshlar guruhi, mehnat jamoalari va, albatta, **oil**a — muhim tarzda ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda (A. V. Mudrik, D. I. Feldshteyn, L. S. Vygotskiy, E. Erikson va boshqalar) qayd etilishicha, shaxsning birlamchi

ijtimoiylashuvi aynan oilada amalga oshadi. Oila — bu shaxsning axloqiy, fuqarolik va huquqiy ongini shakllantiruvchi eng qadimiy ijtimoiy institut bo'lib, u bola uchun jamiyatning ilk "modeli" sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqotchilar fikricha, (V. A. Slastyonin, I. S. Kon, A. G. Asmolov) oilaning ijtimoiy pedagogik ahamiyati shundaki, unda bola birinchi marotaba ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va ijtimoiy rollar tizimi bilan to'qnashadi. Oila ijtimoiy me'yorlarning interiorizatsiyasini — ya'ni bolaning ongiga kirib borishini — ta'minlovchi psixologik muhitni yaratadi. Shu jihatdan, oiladagi axloqiy-psixologik atmosfera, o'zaro hurmat, emotsional yaqinlik va qadriyatlar birligi bolaning huquqiy tafakkurini shakllantiruvchi psixologik determinatorlar sifatida qaraladi.

A. Bandura (ijtimoiy o'rganish nazariyasi) ta'kidlaganidek, bola taqlid va kuzatish orqali xatti-harakat modellari, shu jumladan huquqiy va axloqiy me'yorlarni o'zlashtiradi. Demak, ota-onaning huquqqa bo'lgan munosabati, qonunlarga itoatkorligi yoki befarqligi bolaning huquqiy ongida bevosita iz qoldiradi. Shu sababli huquqiy tarbiya, eng avvalo, ota-onaning shaxsiy namunasi bilan boshlanadi.

Ko'plab mahalliy psixolog olimlar (Masalan, M. G'. Davletshin, G. B. Shoumarov, Sh. R. Amonov) ham oila muhitining shaxsning ijtimoiy va huquqiy shakllanishidagi hal qiluvchi rolini qayd etganlar. Ularning ta'kidlashicha, oila — bu "huquqiy madaniyatning birinchi maktabi", u yerda bola o'z xatti-harakatlarini baholash, mas'uliyatni his etish, "nima mumkin" va "nima mumkin emas" tushunchalarini shakllantiradi.

Shaxs va jamiyatning psixologik uyg'unlashuvi to'g'risidagi konsepsiyalarda (I. Kant, J. Piaget, E. Durkheim) ta'kidlanishicha, insonning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashuvi uning huquqiy uyg'unligi bilan chambarchas bog'liqdir. Bu uyg'unlik esa shaxs va ijtimoiy tuzilmalarning o'zaro munosabatlari muvozanatiga asoslanadi. Shu ma'noda oila — jamiyatning eng kichik, ammo eng barqaror "huquqiy mikromodeli" bo'lib, u orqali bola jamiyatning huquqiy normalarini amaliy hayotda sinab ko'radi.

Bola huquqlarini ta'minlashda oila o'ziga xos psixologik va sotsiokulturniy muhit sifatida maydonga chiqadi. Har bir oilaning pedagogik pozitsiyasi, tarbiyaviy strategiyasi, axloqiy qadriyatlari bolaning huquqiy tafakkuri shakllanish jarayonini belgilab beradi. Ota-onaning bola tarbiyasiga nisbatan egalik qilgan qarashlari — ularning hayot falsafasi, ijtimoiy statusi va huquqiy savodxonlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Oila shaxsning huquqiy tarbiyasida axloqiy me'yorlarning ijtimoiy refleksiyasini shakllantiradi. Bola kundalik oilaviy muloqotda "adolat", "javobgarlik", "halollik", "intizom" kabi tushunchalarni amaliy tajriba sifatida o'zlashtiradi. Shu jarayonda u o'z xatti-harakatlarini baholash mezonlarini shakllantirib, jamiyatda qabul qilingan normalarni anglab yetadi. L. S. Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko'ra, aynan ijtimoiy muhit — bu bolaning psixik funksiyalari shakllanishining manbai, demak, oilaviy ijtimoiylashuv huquqiy tafakkurning psixogen bazasidir.

Bugungi kunda globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari shaxsning ijtimoiylashuvini murakkablashtirmoqda. A. Toffler va M. Castells ta'kidlaganidek, zamonaviy sivilizatsiya sharoitida oila institutining ta'siri qisqarib borayotgandek ko'rinsa-da, uning axloqiy va huquqiy tarbiyadagi mislsiz ahamiyati saqlanib qolmoqda. Chunki oila — bu inson butun umri davomida ma'naviy tayanch sifatida tayanadigan yagona muhitdir.

Huquqiy tarbiya jarayonida davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan belgilangan huquqiy me'yorlar ham muhim o'rin tutadi. Xususan, BMT Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi (1989), Bola huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya (1923) hamda "Bolalarning omon qolishi, himoyasi va rivojlanishini ta'minlash to'g'risidagi Jahon deklaratsiyasi" (1990) bola huquqlarining xalqaro himoya mexanizmlarini belgilab beradi. Ushbu hujjatlar bolaning sha'n va qadr-qimmatini hurmat qilish, uning shaxsiy fikrini e'tirof etish va o'zini ifoda etish huquqini ta'minlashni davlatlar zimmasiga yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Oila kodeksi", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun hamda "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun mazkur xalqaro me'yorlarga to'liq

mos keladi. Ushbu hujjatlar oilaning bola tarbiyasidagi, ayniqsa huquqiy tarbiya yo'nalishidagi mas'uliyatini belgilab beradi. Davlat tomonidan ta'lim tizimini rivojlantirish, ijtimoiy nafaqalar, tibbiy yordam, ko'p bolali oilalarga qo'llab-quvvatlash choralari oilaning huquqiy va ijtimoiy himoyasini kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oila — bu shaxsning ma'naviy-axloqiy, fuqarolik va huquqiy shakllanishining bosh maydoni. Ota-onalar — birinchi o'qituvchilar bo'lib, ular o'z qadriyatlari, dunyoqarashi, huquqqa bo'lgan munosabati bilan farzandining kelajakdagi huquqiy madaniyatiga poydevor yaratadilar. Bola huquqiy tafakkuri Qonun moddalarini bilishdan emas, balki Qonunning mohiyatini anglash, adolat va mas'uliyatni his etishdan boshlanadi. Aynan shu bilimlar insonga o'ziga ishonch, jamiyatda himoyalanganlik va ijtimoiy barqarorlik tuyg'usini baxsh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
- 2.Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Harvard University Press.
- 3.Erikson, E. H. (1968). Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton & Company.
- 4.Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
- 5.Merton, R. K. (1968). Social Theory and Social Structure. New York: Free Press.
- 6.Baumrind, D. (1966). Effects of Authoritative Parental Control on Child Behavior. Child Development, 37(4), 887–907.
- 7.Patterson, G. R., & Capaldi, D. M. (1991). Antisocial Parents: Unskilled and Vulnerable. Journal of Consulting and Clinical Psychology, 59(4), 588–597.
- 8.Healy, W., & Bronner, A. F. (1936). New Light on Delinquency and Its Treatment. Yale University Press.
- 9.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023-yil tahriri). Toshkent: Adolat nashriyoti.
- 10.O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlari to'g'risida"gi Qonuni. (2008-yil 7-yanvar). Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.
- 11.BMT. (1989). Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya. Nyu-York: Birlashgan Millatlar Tashkiloti.
- 12.UNICEF. (1990). World Declaration on the Survival, Protection and Development of Children. New York.
- 13.Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.
- 14.Abdullayeva, N. M. (2021). O'smirlarning huquqiy madaniyatini shakllantirishda oilaning roli. Psixologiya va pedagogika muammolari jurnali, 3(5), 45–52.
- 15.Raxmonova, M. (2020). O'smirlar shaxsida yuridik savodxonlikni rivojlantirishning psixologik asoslari. Toshkent: TDPU Ilmiy nashriyoti.